

Bolalar Muqaddas Kitobi

Tasvirlab beradi

Yolg'onchi Yoqub



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:

M. Maillot; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:

M. Kerr; Sarah S; Alastair Paterson

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children

www.M1914.org

BFC

PO Box 3

Winnipeg, MB R3C 2G1

Canada

©2021 Bible for Children, Inc.

Lisensiya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.


1



Uyda chaqaloq bo'lsa, bu juda ham quvonchli to'grimi? Ishaq va Rivqo ham juda hursand edi. Xudo ularga egizak farzand ato etgandi.


2

Chaqaloqlar onasini qornida bo'lgan chog'idayoq urishardi. Rivqo nimaga shunday, deb ibodat qilganda, Xudo unga "bu ikki farzand ikki xalqqa bo'linadi, kattasi kichigiga bo'ysinadi", dedi. Shunday qilib, chaqaloqlar dunyoga keldi.



3

Egizaklar bir-biriga o'xshamasdi. To'ng'ich o'g'il Esovning tanasi jun matodek, xuddi kelajakda ovchi bo'ladiganga o'xshardi. Yoqubni tanasi esa silliq edi. Ularni otasi Ishaq Esovni, onasi esa Yoqubni ko'proq yaxshi korardi.



4


Bir kuni Esov qorni och bo'lganda, Yoqubdan yegulik so'radi. Yoqub esa buni evaziga uning to'ng'ichlik huqiqini berishini so'radi. To'ng'ich o'g'il oladigan

marhamat Esovni qiziqtirmasdi. Endi otasining vafotidan so'ng Yoqub uying kattasi bo'lish huquqiga ega edi.




5

Bir kuni kechasi Xudo Ishaqqa shunday dedi: "Men otang Ibrohimning Xudosiman. Men sen bilan birgaman. Sening avlodingni marhamatlayman."



6

Esov haqiqiy Xudoni bilmaydigan Xet xalqidan ikki qizga uylangan edi. Ularni Ishaq ham hurmat qilardi. Bunga qaramasdan, Xudo unga baraka berishini aytdi.




7

Ishaq qarib qoldi. U Esovga "menga yangi uloqchani olib kel, so'ng men seni duo qilay," dedi. Bu duo ota to'ng'ich o'g'ilga beradigan mahsus duo edi. Esov ov qilishga ketdi. Bularni barini Rivqo eshitib turgandi. U esa Yoqub shu duoni olishini istardi.




8



Rivqo reja tuzdi. U Ishoq yaxshi ko'rgan ovqatni pishirib, Yoqubga Esovning kiyimlarini kiydirdi. Uning qo'li va bo'yniga jun o'radi. Ishoqni ko'zi xiralashib qolgandi. Shuning uchun ular otasini aldash oson, deb o'ylashdi.

9

Yoqub otasi Ishoqqa ovqat olib kirdi. "Ovozing Yoqubnikiga o'xshaydiyu, lekin qo'llaringdan Esovga o'xshaysan," -dedi Ishoq. U taomni yeb bo'lgach, cho'kkalab, o'g'lini duo qildi.



10



Yoqub ketgandan so'ng Esov keldi. U otasiga: "Mana sizga taom," -dedi. Shunda Ishoq aldanganini bildi. Ammo endi hech narsani o'zgartirib bo'lmasdi. Bu Ishoqni juda ranjitdi. Esov esa juda g'azablanib, Yoqubni o'ldirmoqchi bo'ldi.

11




Rivqo Esovni rejalarini bilib, Yoqubga: "Akaning g'azabdan tushgunga qadar tog'angni uyiga borib tur," -dedi. Yoqub onasining qavmidan xotin olishi kerakligi uchun Ishoq ham rozi bo'lib, uni jo'natib yuborishdi.

12



O'sha kechasi Yoqub toshga boshini qo'yib uxlab qoldi. Balki u bir o'zi bo'lgandir, hatto qo'rqqandir ham, lekin u yolg'iz emas edi. O'sha kecha Xudo unga tush orqali gapirdi.

13



Xudo unga dedi: "Men Ibrohim va Ishoqni, ota-bobolaringni Xudosiman. Men sen bilan birgaman. Senga shu yerni beraman. Sen orqali barcha oilalar marhamatli bo'ladi." Yoqub uyg'onib, qo'rqib ketdi. So'ng yo'lini davom etdi.

14

Yoqubni tog'asi Lobon uni yaxshi kutib oldi. Yoqub Lobonni qizi Rohilani sevib qoldi. Unga uylanish uchun u tog'asiga etti yil davomida ishladi.



Ammo to'y kuni Lobon ayyorlik qildi.



15


Lobon Rohilani o'rniga katta qizi Leaxni unga uzatdi. Yoqub: "Bu Rohila emas-ku, siz meni aldadingiz!" - dedi. Lobon esa: "Avval katta qizimni uzatishim kerak edi. Rohilaga uylanish uchun yana yetti yil ishlaysan!" - dedi. Yoqub rozi bo'ldi. Axir o'zi ham bir vaqtlar akasi va otasiga

ayyorlik qilgan edi-da!




16

Yillar o'tib, Yoqub 11ta o'g'illi bo'ldi. U oilasni olib, o'z yurti Kan'onga qaytishni istardi. U yerda ota-onasi va albatta uni o'ldirmoqchi bo'lgan akasi Esov ham bor edi.




17

Qaytib borish hali ham xavfli bo'lishi mumkin! Lekin bir kuni Xudo Yoqubga qaytib borishi kerakligini aytdi. U oilasi va chorvalarini yig'ib, yurtiga yol oldi.



18

Uning akasi Esov 400ta odam bilan Yoqubni kutib olishga chiqdi. Lekin u Yoqubga zarar yetkazmadi, aksincha uni quchoq ochib qutladi. Ular yana tinch-totuv yashay boshladi.



19

Yolg'onchi Yoqub

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Ibtido 25-33

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130

20

Hikoya tugadi

6



60

21

Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdi O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tirixsan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16

22